

2019 yil 23-24 may kunlari Institutda “Qishloq va suv xo‘jaligi sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda xotin-qizlarning roli” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

Toshkent shahrida 2019-yil 23-24-may

Ilmiy va ilmiy texnik anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” UB UBPF-4947-son Farmoni asosida belgilangan asosiy vazifalarni mantiqiy davom ettirish, 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [farmoni](#), hamda Vazirlar mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 133-f-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash va “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da bajarilishi rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlar faolligini ta‘minlashga erishish borasida **2019 yil 23-24 may kunlari Institutda “Qishloq va suv xo‘jaligi sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda xotin-qizlarning roli” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish rejalashtirilgan.**

Mazkur anjumanda ilmiy maqola va tezislari to‘plami chop etilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu anjumanda o‘z maqola va tezislari bilan ilmiy xodimlar, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari ishtirok etadilar.

Ilmiy maqolalar to‘plami quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Qishloq va suv xo‘jaligi sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlashda ayollarning roli.
- Ta‘lim-tarbiya sohasida xotin-qizlarning o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ruyobga chiqarishning shart-sharoitlari.
- Davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyot tarmoqlarida xotin-qizlarning o‘rni va ularni qo‘llab-quvvatlashning dolzarb masalalari.
- Xotin-qizlarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirishning zamonaviy muammolari.
- Qizlarni sog‘lom turmush tarzi va oila qurishga tayyorlashning dolzarb masalalari.
- Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda tadqiqotchi xotin-qizlarning tutgan o‘rni.

Ilmiy maqolalarni qabul qilish talablari:

I. Ilmiy maqolaning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi shart:

- 1.1. Tadqiqot mavzusi doirasida mavjud muammo.
- 1.2. Muammoni hal etish yo‘llari.
- 1.3. Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar.
- 1.4. Kutilayotgan samara.

II. Maqolalar jiddiy tahrir qilingan va rasmiylashtirishning barcha texnik talablariga mos kelishi zarur, jumladan:

- matn muharriri – MS Word 2003, 2007;
- sahifa – A4 o‘lchovida, kitob ko‘rinishida, barcha tomonlardan 2 sm qoldirilgan;
- shrift – Times New Roman, o‘lchovi (kegl) – 14;

- qator oralig'i va xat boshidagi oralig - 1,5;
- maqolaning hajmi 5-7 bet;
- yuqori o'ng burchakda muallifning to'liq familiyasi, ismi va sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, lovozimi, tashkilot nomi, ilmiy material nomi esa o'rtada (qalin (жирный) harflar bilan) yoziladi;
- barcha jadval, sxema va rasmlar MS Word formatida, Times New Roman shriftida, ularning nomi sxema va rasmlar pastida, jadvallar tepasida bo'lishi kerak;
- barcha grafik, diagrammalar MS Excel formatida bo'lishi kerak;
- formulalar MS Equation redaktorida yozilgan bo'lishi kerak;
- jadval, rasm va grafiklarda manbalar va matnda ularga havolalar ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- havolalar har bir betning pastki qismida joylashtiriladi;
- ilmiy maqola, o'zbek, rus yoki ingliz tilida bo'lishi mumkin.

III. Ilmiy maqolalar anketasi bilan to'ldirilgan holda elektron va chop etilgan shaklda tashkiliy qo'mitaga 2019 yil 10-maygacha TIQXMMI B-bino 1-qavat Xotin-qizlar qo'mitasi manziliga topshirilishi zarur.

Murojaat uchun telefon: (+99871) 237 19 93

Telegramm raqami: (90) 901-36-76.

Elektronpochta manzili: tiqxmmi_ayollar_konf@mail.ru

IV. Taqdim etiluvchi ilmiy maqolalar yuqorida keltirilgan talablarga mosligi bo'yicha ekspertiza, jumladan, antiplagiat dasturi tekshiruvidan ham o'tkaziladi.

Ekspertiza xulosasi ijobiy bo'lgan ilmiy maqolalar nashr uchun to'plamga kiritiladi.